



MECHANISMS FOR IMPROVING PUBLIC ADMINISTRATION EFFICIENCY IN UZBEKISTAN BASED ON THE DIGITAL GOVERNMENT PRACTICES OF ESTONIA AND SOUTH KOREA

D.A. Abdullayev

Researcher

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: digital government; Estonian experience; South Korean model; public administration efficiency; interactivity; transparency; political accountability; open data policy; citizen participation; digital transformation.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the political and institutional mechanisms embedded in the digital government models of Estonia and South Korea, highlighting their theoretical and practical significance for improving the efficiency of public administration. The study conducts a comparative assessment of the two countries' experiences based on key criteria such as interactivity, transparency, accountability, data governance, open data policy, and citizen participation. Furthermore, the article identifies the differences between Estonia's infrastructure-centered model (X-Road, eID) and South Korea's platform-oriented approach (e-People, KONEPS, Gov24), and scientifically evaluates the prospects for adapting these models to the context of Uzbekistan. The findings offer concrete recommendations for modernizing public administration, strengthening citizen engagement, and enhancing open and accountable governance mechanisms within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy.

ESTONIYA VA JANUBIY KOREYA RAQAMLI HUKUMAT TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

D.A. Abdullayev

O'z MU tadqiqotchisi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: raqamli hukumat, Estoniya tajribasi, Janubiy Koreya modeli, davlat boshqaruvi samaradorligi, interaktivlik, shaffoflik, siyosiy javobgarlik, ochiq maʼlumotlar siyosati, fuqarolik ishtiroki, raqamli transformatsiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Estoniya va Janubiy Koreyaning raqamli hukumat modellarida shakllangan siyosiy-institutsional mexanizmlar chuqur tahlil qilinib, ular orqali davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Tadqiqotda ushbu ikki mamlakat tajribasi interaktivlik, shaffoflik, hisobdorlik, maʼlumotlar boshqaruvi, ochiq maʼlumotlar siyosati hamda fuqarolik ishtiroki kabi mezonlar asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada Estoniya infratuzilmaviy (X-Road, eID) modeli va Janubiy Koreyaning platformaviy (e-People, KONEPS, Gov24) yondashuvi oʻrtasidagi farqlar aniqlanib, ularning Oʻzbekiston sharoitiga moslashtirilish imkoniyatlari ilmiy asoslangan holda baholanadi. Tadqiqot natijalari Oʻzbekistonning “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi doirasida davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, fuqarolik ishtirokini kuchaytirish va ochiq hamda hisobdor boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha aniq tavsiyalarni taqdim etadi.

**МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННОГО
УПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ ОПЫТА ЦИФРОВОГО
ПРАВИТЕЛЬСТВА ЭСТОНИИ И ЮЖНОЙ КОРЕИ**

Д.А. Абдуллаев

Исследователь

Национального университета Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: цифровое правительство; эстонский опыт; южнокорейская модель; эффективность государственного управления; интерактивность; прозрачность; политическая подотчётность; политика открытых данных; гражданское участие; цифровая трансформация.

Аннотация: В данной статье представлен глубокий анализ политико-институциональных механизмов, сформировавшихся в моделях цифрового правительства Эстонии и Южной Кореи, с раскрытием их теоретической и практической значимости для повышения эффективности государственного управления. В исследовании проводится сравнительный анализ опыта этих двух стран по ключевым критериям, таким как интерактивность, прозрачность, подотчётность, управление данными, политика открытых данных и гражданское

участие. Кроме того, в статье выявлены различия между инфраструктурной моделью Эстонии (X-Road, eID) и платформенным подходом Южной Кореи (e-People, KONEPS, Gov24), а также научно обоснованно оценены возможности их адаптации к условиям Узбекистана. Полученные результаты включают конкретные рекомендации по модернизации государственного управления, усилению гражданского участия и совершенствованию механизмов открытого и подотчётного управления в рамках стратегии «Узбекистан – 2030».

Kirish. XXI asr boshida globallashuv jarayonlari, iqtisodiy raqobatning kuchayishi va ijtimoiy ehtiyojlarning keskin o'zgarishi davlat boshqaruvi tizimida raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi institutlar va siyosiy mexanizmlarni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirdi. Raqamli hukumat (digital government) endilikda nafaqat xizmatlarni avtomatlashtirish texnologiyasi, balki siyosiy boshqaruvning samaradorligi, shaffofligi, hisobdorligi va fuqarolik ishtiroki darajasini belgilovchi strategik omilga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining E-Government Development Index (EGDI) 2022 va 2024 yillardagi hisobotlarida ta'kidlanishicha, davlat boshqaruvining raqamlashtirilishi demokratik institutlarning barqarorligi, iqtisodiy o'sish sur'atlari va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning inklyuzivligi bilan bevosita bog'liqdir.[1]

Raqamli transformatsiya jarayonida xalqaro tajriba, xususan Estoniya va Janubiy Koreya modellarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Estoniya o'zining "raqamli davlat" konsepsiyasi orqali dunyoda e-identifikatsiya, X-Road, Data Embassy sxemalari va "bir martalik ma'lumot" tamoyili bo'yicha yetakchi davlatga aylangan bo'lsa, Janubiy Koreya G4C, KONEPS, e-People, Gov24 kabi platformalar orqali "platforma hukumat" (platform government) modelini shakllantirib, davlat-fuqaro munosabatlarini interaktiv va hisobdor mexanizmlarga asoslagan. OECD ekspertlari Janubiy Koreya tajribasini "digital accountability regime" – ya'ni raqamli javobgarlikning institutsional modeli sifatida baholagan.[2]

O'zbekiston ham so'nggi yillarda davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish jarayonida ushbu ilg'or tajribalarni chuqur o'rganishga va ularni milliy sharoitga moslashtirishga katta e'tibor qaratmoqda. "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonun, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi(05.10.2020), "O'zbekiston – 2030" strategiyasi (11.09.2023), "Ochiq ma'lumotlar" portalining takomillashtirilishi, "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" imkoniyatlarining kengayishi va davlat xizmatlarini avtomatlashtirish bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlar

O'zbekistonda yangi raqamli boshqaruv modelini shakllantirishning institutsional asoslarini yaratmoqda.

Shunga qaramay, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun joriy qilinayotgan raqamli mexanizmlar ko'plab tizimli muammolar – ma'lumotlar interoperabilitetining pastligi, idoralararo integratsiyaning yetarli emasligi, fuqarolar bilan raqamli kommunikatsiyaning sustligi, korrupsiyaga qarshi raqamli mexanizmlarning yetarli darajada shakllanmaganligi – tufayli kutilgan natijani to'liq bera olmayapti. Shu nuqtai nazardan, Estoniya va Janubiy Koreya tajribalarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish davlat boshqaruvi samaradorligi, shaffoflik va siyosiy javobgarlikni oshirish bo'yicha strategik yo'nalish sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Estoniya modelining asosiy ustunligi – kuchli texnologik infratuzilma, ma'lumot almashinuvi (interoperabilitet) va kiberxavfsizlik tizimlarining mukammalligi, Koreya modelining afzalligi esa – davlat xizmatlarini platformalashtirish, korrupsiyaga qarshi raqamli mexanizmlarni institutsionalizatsiya qilish va fuqarolik ishtirokini davlat siyosati bilan uzviy bog'lashdir. Bu jihatlarda O'zbekiston uchun ham davlat boshqaruvini transformatsiya qilishda aniq va mezonli yo'nalishlarni belgilash imkonini yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qiyosiy siyosiy tahlil, institutsional yondashuv, benchmarking yondashuvi, normativ-huquqiy tahlil va kontent-tahlil usullariga asoslanadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi – O'zbekiston uchun raqamli hukumatni modernizatsiya qilish bo'yicha Estoniya va Koreya modellaridan kelib chiqadigan amaliy mexanizmlarni kompleks yondashuvda asoslashdan iborat. Shu bois, mazkur ilmiy maqola O'zbekistonning davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonini takomillashtirish, samaradorlikni oshirish va ochiq-hisobdor boshqaruvni shakllantirish bo'yicha strategik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Raqamli hukumat: nazariy asoslar va konseptual yondashuvlar.

XXI asr boshida davlat boshqaruvi sohasida raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi paradigmaning shakllanishi siyosiy tizimning transformatsion jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda kechdi. An'anaviy byurokratik boshqaruv modeli o'rnini bosib borayotgan "raqamli hukumat" tushunchasi davlat hokimiyatining ochiqligini, fuqarolarning siyosiy ishtirokini va ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish madaniyatini kuchaytirishga qaratilgan kompleks tizim sifatida talqin qilinmoqda. Raqamli hukumat konsepsiyasining shakllanishi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi siyosiy-institutsional yondashuvlarning paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liqdir.

Ilmiy adabiyotlarda raqamli hukumat (digital government) quyidagi uch asosiy nazariy yondashuvlar asosida izohlanadi:

1. texnokratik yondashuv,
2. neoinstitutsional yondashuv,

3. interaktiv–deliberativ yondashuv.

Texnokratik yondashuvga ko‘ra, raqamli hukumat — bu davlat xizmatlarini avtomatlashtirish, raqamli platformalar orqali ma‘muriy xarajatlarni kamaytirish va xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan texnologik jarayon.[3] Ushbu yondashuv elektron hukumatni texnik infratuzilma, dasturiy ta‘minot, elektron xizmatlar va ma‘lumot almashish tizimlari majmuasi sifatida ko‘radi. Mazkur yondashuvni qo‘llagan davlatlar asosan xizmatlar soni, elektron arizalar ulushi va onlayn tranzaksiyalar hajmi orqali samaradorlikni o‘lchaydi.

Neoinstitutsional yondashuv esa raqamli hukumatni demokratik siyosiy tizimning institutlariga integratsiyalashgan normativ-huquqiy mexanizm sifatida talqin qiladi.[4] Bu yondashuvga ko‘ra, elektron hukumatning haqiqiy samaradorligi ma‘lumotlar boshqaruvi, idoralararo interoperabilitet, ochiq ma‘lumotlar tizimi, ma‘lumot xavfsizligi, jamoatchilik nazorati va hisobdorlik kabi omillar bilan belgilanadi. Estoniya modeli aynan neoinstitutsional yondashuv asosida shakllanib, “bir martalik ma‘lumot” tamoyili, X-Road platformasi va e-ID tizimi orqali raqamli boshqaruvning institutsional poydevorini yaratdi.

Interaktiv–deliberativ yondashuv esa raqamli hukumatni siyosiy kommunikatsiyaning yangi shakli sifatida ko‘rib, fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtirokini kuchaytirishni bosh maqsad sifatida belgilaydi.[5] Bu yondashuvga ko‘ra, elektron hukumatning muvaffaqiyati faqat texnologik innovatsiyalar bilan emas, balki davlat–fuqaro o‘rtasidagi muloqotning ochiqligi, onlayn muhokama platformalari va fuqarolik raqamli sub‘ektivligi bilan o‘lchanadi. Janubiy Koreyaning e-People, Citizen Co-Creation Portal, Gov24 kabi tizimlari aynan deliberativ demokratiyaga asoslangan ushbu yondashuvning yorqin namunasidir.

Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy nazariy yondashuvlar raqamli hukumatning uchta asosiy prinsipiga e‘tibor qaratadi:

1) interaktivlik (interactivity) — davlat va fuqaro o‘rtasida ikki yo‘nalishli axborot almashinuvi;

2) shaffoflik (transparency) — ma‘lumotlarning ochiqligi va davlat faoliyatining kuzatuvchanligi;

3) siyosiy javobgarlik (accountability) — davlat organlarining qonuniy, axborotiy va axloqiy javobgarligi.[6]

BMT va OECD tomonidan e‘tirof etilgan ushbu yondashuvga ko‘ra, raqamli hukumatning sifatini faqat onlayn xizmatlar soni emas, balki ochiq ma‘lumotlar siyosati, korrupsiyaga qarshi raqamli mexanizmlar, fuqarolik ishtiroki darajasi, jamoatchilik bilan muloqot kanallarining samaradorligi va hukumatning “raqamli iz” qoldirish darajasi belgilaydi.

Estoniya modeli mazkur tamoyillarni institutsional jihatdan mustahkamlagan bo‘lsa, Janubiy Koreya modeli ularni amaliyotda platforma hukumat shaklida ilgari surdi. Estoniya -

texnologik infratuzilmaviy takomillik, ma'lumot xavfsizligi va interoperabilitet bo'yicha global namuna bo'lsa, Koreya - proaktiv xizmatlar, korrupsiyaga qarshi raqamli tizimlar va fuqarolik ishtirokini institutlashtirish bo'yicha yetakchi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Estoniya raqamli davlatining shakllanishi mamlakatning 1991-yilda mustaqillikka erishishi bilan bog'liq bo'lib, yangi siyosiy elita davlatni tubdan modernizatsiya qilish, sovet byurokratik merosidan voz kechish hamda G'arb institutlari bilan integratsiyalashish maqsadini ilgari surdi. 1990-yillar boshida iqtisodiy qiyinchiliklar, migratsiya bosimi va davlat institutlarining zaiflashuvi hukumatni boshqaruv samaradorligini oshirishning innovatsion yo'llarini izlashga majbur qildi. Mazkur sharoitda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari Estoniyada siyosiy yangilanishning asosiy vositasiga aylandi.

1994-yilda qabul qilingan "Principles of Estonian Information Policy" konsepsiyasi davlat idoralarida ma'lumot siyosatini markazsizlashtirish, yagona axborot makonini yaratish va boshqaruvni ochiqlashtirishni nazarda tutdi.[7] Ushbu hujjat Estoniyada raqamli davlatning siyosiy-falsafiy poydevorini shakllantirdi, chunki u davlatni "axborot oqimiga asoslangan boshqaruv tizimi" sifatida talqin qildi.

1996–2000-yillarda amalga oshirilgan "Tiger Leap" dasturi ta'lim muassasalarining kompyuterlashtirilishi, Internet infratuzilmasining kengayishi va aholining raqamli savodxonligini oshirish orqali raqamli davlat uchun ijtimoiy kapital yaratdi.[8] Natijada, 1990-yillar oxiriga kelib Estoniya aholisining ko'pchiligi davlat xizmatlaridan onlayn foydalanishga tayyor bo'ldi.

2001-yilda e-ID kartasining, 2002-yilda X-Road platformasining ishga tushirilishi davlat boshqaruvining markaziy elementiga aylandi. X-Road orqali barcha davlat idoralari o'z ma'lumotlarini avtomatik tarzda o'zaro almashadigan gorizonta integratsiyalashgan boshqaruv modeli shakllandi. Bu tizim Estoniyada "bir marta kiritish tamoyili"ni qonuniy kuchga ega mexanizmga aylantirdi.[9]

2005-yilda dunyoda ilk bor elektron ovoz berish (i-voting) joriy etilishi Estoniyaning raqamli demokratiyada liderga aylanishiga sabab bo'ldi. BMT EGD I reytinglarida Estoniya 2000-yillar o'rtalaridan boshlab yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda.[10]

Siyosiy jihatdan, Estoniya modelining muvaffaqiyati uch omil bilan belgilanadi:

1. davlatning raqamli suverenitetni strategik maqsad sifatida belgilashi;
2. institutlararo ma'lumot almashuvning to'liq avtomatlashtirilgan tizimi yaratilishi;
3. hukumat–fuqaro o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlovchi shaffof boshqaruv mexanizmlari.

Bu tajriba, ayniqsa, O'zbekiston uchun muhim, chunki hozirda mamlakatda ma'lumotlar integratsiyasi, identifikatsiya tizimlari va "bir marta kiritish" tamoyili bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Janubiy Koreyaning raqamli hukumatga yo‘naltirilgan siyosiy transformatsiyasi 1997-yilgi Osiyo moliyaviy inqirozi oqibatida paydo bo‘lgan davlatga ishonch inqirozini bartaraf etish bilan bog‘liq. Inqiroz davrida korrupsiya, byurokratiya sustligi va iqtisodiy boshqaruvning samarasizligi hukumatga nisbatan ijtimoiy norozilikni kuchaytirgan edi.

Prezident Kim Dae-jung elektron hukumatni iqtisodiy tiklanish va siyosiy legitimlikni qayta tiklash vositasi sifatida belgiladi. 2001-yilda qabul qilingan “Electronic Government Act” davlat idoralari yagona raqamli platformaga integratsiya qilishni ko‘zlatdi.[11]

2003-yilda joriy qilingan OPEN tizimi fuqarolarga har bir arizaning ko‘rib chiqilish jarayonini onlayn kuzatish imkonini berib, mansabdor shaxslar ustidan real vaqt nazoratini yaratdi. OECD ekspertlari mazkur tizim korrupsiya darajasini 40% gacha kamaytirganini qayd etadi.[12]

Shuningdek, KONEPS - davlat xaridlarining 100% elektron tizimi - Janubiy Koreyani BMT tomonidan “eng shaffof xarid amaliyotiga ega davlatlardan biri” sifatida e‘tirof etilishiga olib keldi.[13]

2007–2013-yillarda Koreya u-Government, Gov24, e-People kabi platformalar orqali davlat xizmatlarini mobil, bulutli va doimiy mavjud tizimga aylantirdi. BMT 2010, 2012 va 2014-yillardagi EGDI hisobotlarida Koreyani 1–2-o‘rinlarda qayd etgan.[14]

2013–2020-yillarda “Smart Government” modeli sun‘iy intellekt, Big Data va “participatory accountability” (ishtirokchi javobgarlik) tamoyiliga asoslangan boshqaruvni shakllantirdi. Fuqarolar onlayn petititsiyalar, muhokamalar, normativ loyihalar bo‘yicha raqamli forumlar orqali siyosiy qaror qabul qilish jarayonining faol sub‘yektiga aylandilar.

Janubiy Koreya modelining siyosiy mohiyati quyidagi jihatlarida namoyon bo‘ladi:

1. ochiq ma‘lumotlar va xizmatlar monitoringi orqali shaffoflikning institutsionallashuvi;
2. jamoatchilik ishtiroki asosida interaktiv legitimlikni shakllantirish;
3. ma‘lumotga asoslangan siyosiy qarorlar orqali javobgarlik rejimini kuchaytirish.

Bu model O‘zbekistonning “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida raqamli hukumatning 4 bosqichi (Axborot → Interaktiv → Transaksion → Proaktiv)ni joriy etishda muhim nazariy-amaliy asos bo‘la oladi.

Har ikki davlat tajribasi O‘zbekiston uchun raqamli transformatsiya siyosatida quyidagi strategik jihatlar muhimligini ko‘rsatadi:

1. Raqamli suverenitet – ma‘lumotlar milliy infratuzilma orqali boshqarilishi;
2. Interoperabilitet va “bir marta kiritish” tamoyili – xizmatlar samaradorligini keskin oshiradi;

3. Korrupsiyaga qarshi raqamli mexanizmlar (OPEN, KONEPS) – byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi;

4. Aholining raqamli ishtiroki – siyosiy legitimlikning yangi shaklini yaratadi;

5. AI va Big Data asosidagi boshqaruv – tahliliy davlat modeliga o‘tishni tezlashtiradi.

O‘zbekistonning so‘nggi yillarda amalga oshirayotgan “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali”, “Elektron hukumat” loyihalari, ochiq ma’lumotlar siyosati va “proaktiv xizmatlar” yo‘nalishlari aynan Estoniya va Koreya tajribalarining mahalliyashtirilgan variantidir.

Estoniya raqamli davlat modeli asosan infratuzilmaviy yadroga - X-Road, eID, davlat ma’lumotlar bazalarining o‘zaro integratsiyasiga tayangan bo‘lib, davlat boshqaruvida “ko‘rinmaydigan lekin barqaror” texnologik asos yaratadi. Bu modelda boshqaruvning samaradorligi interoperabilitet darajasiga bog‘liq.[15] Janubiy Koreya esa, platformaviy davlat konsepsiyasini shakllantirgan: Gov24, e-People, KONEPS, Smart Government, Digital Platform Government kabi tizimlar fuqarolar bilan interaktiv muloqot va faol siyosiy ishtirokni ta’minlaydi. Koreya modeli texnologik infratuzilmadan ko‘ra proaktiv xizmatlar ekologiyasini rivojlantirishga asoslanadi.[16] Agar Estoniya “axborot magistrali”ni takomillashtirgan bo‘lsa, Koreya “ijtimoiy-siyosiy platforma”ni rivojlantirdi.

Estoniyada interaktivlik asosan xizmatlar tezligi va ma’lumotlar uzatuvchanligi bilan bog‘liq: fuqarolar eID orqali barcha jarayonlarni o‘zlari boshqaradi. Bu “texnik-interaktivlik” deb ataladi. Koreyada esa interaktivlik siyosiy mazmunga ega: e-People, Co-Creation Portal va onlayn muhokama platformalari orqali fuqarolar siyosat loyihalarini shakllantiruvchi faol sub’yektga aylanadi. Koreya modelida interaktivlik nafaqat xizmat olish, balki qarorlar qabul qilishda ishtirok etishni anglatadi.

Estoniyada shaffoflik “Data Tracker” mexanizmi, ochiq reyestrlar va auditloglar orqali ta’minlanadi – fuqarolar o‘z ma’lumotlariga kim va qachon murojaat qilganini biladi. Bu individual shaffoflik modelidir.[17] Koreyada shaffoflik makro darajada shakllanadi: OPEN tizimi ma’muriy jarayonlarni real vaqt rejimida ko‘rsatadi, KONEPS orqali barcha xaridlar ochiq yuritiladi, Digital Platform Government dashboardlari esa budjet va natijalarni jamoatchilik nazoratiga taqdim etadi.[18] Natijada Estoniya – fuqaroga yo‘naltirilgan shaffoflikni, Koreya – tizimli va siyosiy shaffoflikni rivojlantirgan.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Estoniyaning javobgarligi – individual nazoratga; Koreyaniki – ijtimoiy javobgarlik tizimlariga tayanadi. Bizningcha, O‘zbekiston uchun har ikki modelning ayrim elementlari mos keladi:

Estoniya modeli: “bir marta kiritish” tamoyili, ma’lumotlar integratsiyasi, eID, X-Road tipidagi platforma – O‘zbekistonning davlat ma’lumotlar bazalarini birlashtirish jarayoni uchun strategik ahamiyatga ega. Bu model institutsional barqarorlikni kuchaytiradi.

Koreya modeli: OPEN, KONEPS, e-People kabi tizimlar O‘zbekistonda korrupsiyani kamaytirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va fuqarolarning siyosiy ishtirokini oshirishga mos keladi. Bu model politiko-ijtimoiy transformatsiya uchun samarali.

Shunday qilib, O‘zbekiston uchun optimal yo‘l – Estoniyaning infratuzilmaviy yadro modeli + Janubiy Koreyaning interaktiv platforma modeli sintezi hisoblanadi. Bu yondashuv nafaqat davlat xizmatlarini soddalashtiradi, balki fuqarolik ishtiroki va siyosiy javobgarlikni mustahkamlovchi zamonaviy “accountable e-government” tizimini yaratish imkonini beradi.

Tadqiqot Estoniya va Janubiy Koreyaning raqamli hukumat modellarini qiyosiy tahlil qilish orqali shuni ko‘rsatdiki, raqamli davlatning samaradorligi birgina texnologik innovatsiyalarga emas, balki institutsional izchillik, siyosiy ishonch va fuqarolik ishtirokini ta’minlovchi boshqaruv mexanizmlariga tayangan holda shakllanadi. Estoniya modeli interoperabilitet, eID va X-Road kabi infratuzilmaviy yadroga asoslanib, davlat boshqaruvida yuqori barqarorlik va ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlaydi. Koreya modeli esa platformaviy boshqaruv, proaktiv xizmatlar, ochiq ma’lumotlar, e-People, KONEPS va Digital Platform Government orqali interaktivlik, shaffoflik hamda siyosiy javobgarlikni bir butun tizimga aylantirgan. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, Estoniya — “infratuzilmaviy samaradorlik”, Koreya esa - “ijtimoiy-institutsional samaradorlik”ni yaratgan ikki turli, ammo bir-birini to‘ldiruvchi modeldir.

Biz O‘zbekiston uchun Estoniya va Koreya tajribalari o‘zaro integratsiyalanadigan gibrid model yaratish imkoniyatini taklif etamiz:

Birinchidan, Estoniyaga xos “bir marta kiritish” tamoyili, eID va X-Road tipidagi ma’lumotlar integratsiyasi O‘zbekistonning axborot tizimlarini yagona davlat platformasiga uyg‘unlashtirish uchun zarur.

Ikkinchidan, Koreyaning OPEN, KONEPS, e-People kabi shaffoflik va fuqarolik ishtiroki vositalarini adaptatsiya qilish korrupsiyani kamaytirish, davlat xizmatlarining javobgarligini oshirish va jamoatchilik nazoratini institutsionallashtirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, “Digital Platform Government” yondashuviga mos ravishda ma’lumotlarga asoslangan siyosat (data-driven governance), real vaqt nazorat panellari, ochiq ma’lumotlar siyosatini kengaytirish O‘zbekistonning digital transformatsiya bosqichini jadallashtiradi. Natijada mamlakat davlat boshqaruvi samaradorligini oshiruvchi “hisobdor raqamli hukumat” modeliga yaqinlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. United Nations. E-Government Survey 2022–2024: The Future of Digital Government. New York: UN Department of Economic and Social Affairs, 2024.
2. OECD. Digital Government Review of Korea 2020: Towards Data-Driven Public Sector. Paris: OECD Publishing, 2020.

3. Heeks, Richard. "Reinventing Government in the Information Age." Routledge, 2001.
4. Fountain, Jane. Building the Virtual State: Information Technology and Institutional Change. Washington, DC: Brookings Institution Press, 2001.
5. Nabatchi, Tina. "Deliberative Democracy and Digital Participation." Public Administration Review, 2012.
6. United Nations. E-Government Survey 2022. New York: UN DESA, 2022.
7. Government of Estonia. Principles of Estonian Information Policy. Tallinn: Estonian Informatics Council, 1994.
8. Ministry of Education of Estonia. Tiger Leap Program Report 1996–2000. Tallinn, 2001
9. E-Estonia Briefing Centre. X-Road Data Exchange Layer Overview. Tallinn, 2019.
10. Trechsel, A. H., & Breuer, F. (2006). E-voting in the 2005 local elections in Estonia and the broader impact for future e-voting projects. In Proceedings of the 2006 national conference on Digital government research - dg.o '06 (p. 40). ACM Press. <https://doi.org/10.1145/1146598.1146614>
11. Government of Korea. Electronic Government Act, 2001.
12. OECD. "Korea: Public Sector Transparency Review." OECD Governance Papers (2018).
13. United Nations. "KONEPS Case Study." UN Procurement Capacity Development Report (2017).
14. United Nations. E-Government Development Index (2010, 2012, 2014).
15. Robert Krimmer, Electronic Government in Estonia, Government Information Quarterly 34, no. 1 (2017): 20–27.
16. OECD, Digital Government Review of Korea 2020, Paris: OECD Publishing, 2020.
17. Estonian Information System Authority (RIA), Data Tracker Overview, 2021.
18. World Bank, KONEPS Case Study: Korea's e-Procurement System, 2018.